

QULOQ-CHAKKA NERVI NEVRALGIYASI

Quloq-chakka nervi nevrалgiyasi kam uchraydi. Sanchuvchi og'riqlar quloq suprasining oldingi qismi, ya'ni chakka sohasida kuzatiladi. Nevralgiya quloq oldi bezi yallig'lanish kasalliklaridan (parotit) bir necha kun yoki bir necha hafta o'tgach rivojlanadi. Ba'zida nevrалgiya hech bir «sababsiz» to'satdan paydo bo'ladi. Ovqat chaynaganda, issiq yoki achchiq ovqat yeganda quloq suprasining oldingi qismida achishtiruvchi og'riqlar vujudga keladi, ushbu joyda qizarish va terlash kuzatiladi. Bu nevrалgiyani ko'pincha uch shoxli nervning 2- va 3-tarmoqlari nevrалgiyasi bilan qiyoslashga to'g'ri keladi.

Manba: © Z. Ibodullayev. Asab kasalliklari. 2-nashr. Darslik, Toshkent, 2021., 960 b.

© Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b.

© Ibodullayev ensiklopediyasi

© www.asab.uz